

O‘ZBEK TILIDA YUKLAMALASHISH HODISASI

Temirova Dilnoza Akmaljonovna

SamDU Lingvistika: o‘zbek tili 1-bosqich magistranti

e-mail: dilnozatemirova521@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek tilida so‘z turkumlari transpozitsiyasining ayrim jihatlari, konversiya va yuklamalashish hodisasiga bag‘ishlanadi. Maqolada sohaga oid ilmiy qarashlar hamda misollar yordamida tahlil olib boriladi.

Kalit so‘zlar: konversiya, transpozitsiya, yuklama, yuklamalashish (partikulyatsiya) hodisasi.

So‘z turkumining ko‘chishi – transpozitsiya deganda, ma’lum bir turkumga mansub so‘zning o‘ziga xos bo‘lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so‘z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo‘lishi tushuniladi. Turkiy tillarda so‘z turkumi bir-biridan qat’iy chegaralanmaydi, ular uzviy aloqada, bir butun sistemani tashkil etadi. Transpozitsiya deyarli barcha mustaqil so‘z, hatto mustaqil va yordamchi so‘zlar orasida ham kuzatiladi. Biz aynan mana shu yordamchi so‘zlar tarkibiga kiruvchi yuklamalarda transpozitsiya hodisasini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu hodisa bo‘yicha professor A.Pardayev “Grammatizatsiya va yordamchi so‘zlar” monografiyasida quyidagicha fikrlarni bildirib o‘tadi:

“Tilimizda “ko‘chish”, “transpozitsiya”, “konversiya” atamalari bilan izohlangan bu hodisa borasida bir qancha tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati so‘z turkumlariaro ko‘chishga bag‘ishlangan. Umuman, tilshunosligimizda “ko‘chish” termini ostida ham, “konversiya” va “transpozitsiya” atamalari ostida ham faqat so‘z turkumlari darajasidagi ko‘chishlar (otlashish, sifatlashish, ravishlashish, fe’llashish, olmoshlashish kabilar) tushunilib kelindi. Ammo bu hodisalarni chuqur tahlil qilgan J.Eltazarov lisoniy transformasiologiyaning til taraqqiyotida tutgan o‘rni nihoyatda keng qamrovli ekanligini, boshqa vositalar, jumladan, so‘z yasash va so‘z o‘zlashtirishdan kam emasligini ta’kidlab, til transformasiologiyasiga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini va har bir milliy tilshunoslik fani tarkibida “til transformasiologiyasi” yoki “ko‘chish nazariyasi” yo‘nalishini vujudga keltirish kerakligini alohida qayd etadi”¹.

J.Eltazarov ushbu hodisalar uchun quyidagi atamalarni tavsiya qiladi: umumiy “**ko‘chish**” (konversiya, transpozitsiya, translyatsiya), bir

¹ Pardayev A.B. - Grammatizatsiya va yordamchi so‘zlar. -Samarqand: SamDU nashri, 2012. 117-b.

turkumdan boshqa turkumga ko‘chiriluvchi so‘z uchun “ko‘char so‘z” (transpondent), ko‘chgan so‘z uchun “ko‘chkin so‘z” (transpozit), so‘zni bir turkumdan boshqasiga ko‘chiruvchi usul va yo‘llar uchun “ko‘chiruvchi vosita” (transpozitor) kabilar. Darhaqiqat, tilshunosligimizda ushbu terminlar keng qo‘llanilsa va mazkur atamalardan anglashiladigan tushunchalarga tayangan holda ish ko‘rilsa buning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da bu atamalar shunday ta’riflanadi: “Konversiya. Biror turkum leksemasini boshqa turkumga xos forma yasash paradigmasiga o‘tkazish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish. Masalan, tuslanish paradigmasiga ega bo‘lgan atama leksemasini turlanish sistemasiga o‘tkazish bilan atama ot leksemasi hosil bo‘lgan” . “Ko‘chish. Biror turkumga oid so‘zning boshqa turkumga oid so‘zga aylanishi: Sifatning otga ko‘chishi (substantivatsiya)” va b. “Transpozitsiya. Grammatik kategoriyalarning o‘ziga xos bo‘lmagan funksiyada qo‘llanishi (mas., bir turkum so‘zining kontekstda boshqa turkum so‘zi kabi qo‘llanishi): sifatning otlashishi va sh.k. qiyos. konversiya”². Tilshunoslikda har uchala termin ham so‘z turkumlariaro ko‘chish hodisasini anglatadi.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z turkumlariaro ko‘chishning quyidagi turlari mavjud:

1. Otlanish (Substantivatsiya).
2. Sifatlanish (Adyektivatsiya).
3. Sonlanish (Numerilizatsiya).
4. Olmoshlanish (Pronominalizatsiya)
5. Ravishlanish (Adverbializatsiya).
6. Fe‘llanish (Verbalizatsiya).
7. Tasviriylanish (Essivatsiya).
8. Undovlanish (Interyektivatsiya).
9. Modallashish (Modalyatsiya).
10. Ko‘makchilashish (Postpozitionalizatsiya).
11. Bog‘lovchilashish (Konyuktionalizatsiya).
12. Yuklamalashish (Partikulyatsiya).³

Barcha turkiy tillarda, shuningdan o‘zbek tilida ham shunday turkum borki, ular butun bir jumлага, gapga yoki gap bo‘laklariga qo‘shimcha ma’no, har xil sub’ektiv, emotsional-ekspressiv va modal mazmunini beradi. Yordamchi so‘z turkumlarining bu turi yuklamalar deyiladi. Gap tarkibida ularning asosiy vazifasi –

² Хожиев Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002, 51, 55, 111-б.

³ Majidova Sh va Ergasheva Z. Sifatda konversiya hodisasi. Jahon ilmiy- metodik jurnali, 2024. 11-b.

gap bo‘lagi va gaplarga qo‘shimcha (so‘roq-taajub, kuchaytiruv-ta’kid, o‘xshatish-qiyoslash, inkor.....) ma’no yuklashdir.

Professor A. Pardayev o‘zining “Til tizimida yordamchi so‘zlar” nomli monografiyasida J. Hamdamovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tadi:

“Yuklamalar turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida boshqa turkumlardagi so‘zlarga nisbatdan keyinroq (lekin bog‘lovchidan oldinroq) paydo bo‘lgan grammatik kategoriya bo‘lib, ular modal so‘zlar bilan qo‘shimchalar orasidagi joyni egallaydi. Yuklamalarning ko‘pchiligi ot, fe‘l, olmosh, ravish kabi mustaqil ma’noli so‘zlardan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Binobarin, eng qadimgi turkiy tilda grammatik jihatdan rasmiylashgan, alohida turkum bo‘lib ajralib chiqqan yuklamalar yo‘q edi. Ba’zi ot va fe‘llar yuklama vazifasini bajarar edi”⁴.

Bundan kelib chiqadiki, yuklamalar ham konversiya hodisasiga uchraydi. Tilshunosligimizda yuklama vazifasida bo‘lmagan so‘zlarni yuklama vazifasida kelishi partikuliatsiya hodisasi (yuklamalashish) deb yuritiladi.

So‘zimizning isboti sifatida quyida yuklamashish hodisasiga bir qancha misollar keltiramiz:

Sifat turkumiga mansub yakka, yakka-yu yagona, yagona, yomon, tanho kabi so‘zlar gap yoki so‘z birikmasi talabi bilan yuklama vazifasini ham bajarishi mumkin: Yagona so‘zi: Endi u yagona bir narsaning – pulning hisobini bilardi. Pul uchun dunyoning narigi chekkasiga borishdan ham toymas, to‘ylarda tongotar ashula aytib, xirillab qolardi. (O‘tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi, 1969, 105-bet) Ushbu gapda “yagona” so‘zi (faqat bir narsaning) ayiruv yuklamasi vazifasida kelmoqda.

Yakka so‘zi ham ba’zi o‘rinlarda yuklama bo‘lib kelishi mumkin: Kechqurunlari horib-charchab chodiri oldida yakka o‘zi choy ichib o‘tirardi. Tol tagidagi so‘rida gurunglashib o‘tirganlarning oldiga bormaydi. Ular suhbatiga aralashmasligining sababini Nizomjon biladi. (Said Ahmad, Ufq, 1976, 440-bet).

Yomon so‘zi: Shu payt juda yaqindan mototsikl patillab tindi. Bir ozdan keyin pastdan A‘zamjon chiqib keldi. U nimadandir hayajonlanar, Dildorga yomon qarar edi. (Said Ahmad, Ufq, 1976, 265-bet). Ushbu gapda “yomon” so‘zi kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi vazifasini bajarmoqda.

Tanho so‘zi: U dargohda rang bor, olov bor, Tanhogina sen yo‘qsan, gulim. (R.Parfi, Ko‘zlar she’ri). Qani endi, butun borliqqa tanho o‘zing hukmron bo‘lsang (F.Musajonov, Himmat). Har ikkala gapda “tanho” so‘zi ayiruv-chegaralov yuklamasi vazifasida, ya’ni birinchi gapda “sen” olmoshini, ikkinchi gapda o‘zlik olmoshini ayirib-chegaralab kelmoqda.

Son so‘z turkumiga oid “bir” so‘zi ham gapni yoki gap bo‘lagini ajratish, ta’kidlash, ayirish-chegaralash uchun xizmat qiladi va yuklama vazifasini bajaradi:

⁴ Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. 122-б.

Shuni bir yaxshilab gazetaga yozinglar. Sobir qo‘shiq yozadi. Usta kuy bastalaydi. Sen ocherkmi yo she‘rmi yozasan. (Said Ahmad, Ufq, 1976, 94-bet) Ushbu gapda” bir” so‘zi harakat bildiruvchi so‘zdan (yaxshilab) oldin kelib, o‘zidan keyin kelgan so‘zning ma‘nosini kuchaytirib, ta‘kidlab, bo‘rttirib kelmoqda.

Fe‘l so‘z turkumiga xos bo‘lgan kelib-kelib, boringki, aytganday, kel, aytaylik, deylik, qo‘ying kabi so‘zlar ham yuklamalashgan holda so‘z, so‘z birikmasi yoki gapga modallik va kuchaytirish ma‘nolarini yuklashi mumkin: Bunday hollarda kelib-kelib, boringki kabi so‘zlar harakat ma‘nosini butunlay yo‘qotadi. Masalan, Davradagilarning ba‘zilari “Shu ham ish bo‘ldi-yu, kelib- kelib mushtumdek bir bola bilan dardlashgani-chi” degandek bir-birlariga qarab oldilar-u ko‘plar qatori muhtasham bir bog‘ga teng huquqli ega chiqqanlari esiga tushdimi, hartuguk, bu safar miq etib og‘iz ochishmadi...(Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat, 1997-yil, 20-bet). Biroq nega kelib-kelib endi bosh ko‘tardi ekan bu la‘nati Vijdon? Nega bularning hammasi yuz bermasdan ilgari meni to‘xtatmadi u?...- deya yana o‘zini qiynardi. (Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat, 1997-yil, 239-b). Axir, Said ham avvallari “Men” dan gapirguvchi, “Men” deguvchi edi. Endi nechun faqat “Biz” deydi. Yoki ko‘pchilikning – jamoaning ishi shunaqa bo‘larmikan? Shundan ham deylik, lekin unda Saidaning men bilan “men” i qayoqqa ketdi? (Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat, 1997-yil, 97-bet). Axir Yusuf butunlay boshqa odam, boshqa olam-ku! Uning manga, maning ishimga, oilamga, boringki, butun dunyomga deyarli aloqasi yo‘q-ku. (Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat, 1997-yil, 118-bet).

Yuqorida keltirilgan misollarda kelib-kelib, deylik, boringki kabi fe‘llar o‘z ma‘nosini butunlay yo‘qotib, gaplarga kuchaytiruv-ta‘kid ma‘nolarini yuklab kelgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, so‘z turkumlari orasidagi muntazam aloqa til tizimining doimiy o‘zgarish, taraqqiyotdagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pardayev A.B. Gramatizatsiya va yordamchi so‘zlar. -Samarqand: SamDU nashri, 2012.-138b ;
2. R. Sayfullayeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent, Fan va texnologiya, 2009 ;
3. Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. - 160 б.
4. Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент, 2013. - 199 б.
5. Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002, 168-б.